

**O`ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHDA
INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI**

Abdusaxatov Ma'murjon

Milliy Universitet, iqtisodiyot yo`nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada infrastruktura tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida u to'g'risida ayrim ilmiy-nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, infratuzilmani tadbirkorlik sohasidagi o'rni va uning ishbilarmonlik muhitiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan. Maqolada asosan ilmiy abstraksiya hamda mantiqiylik va tarixiylikning birligi ilmiy bilish usullaridan foydalangan holda masalaga yondashilgan va hududlarda infratuzilmani rivojlantirishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan ayrim jihatlarni tavsiya sifatida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: infrastruktura, iqtisodiy infrastruktura, ijtimoiy infrastruktura, ishlab chiqarish

KIRISH

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri bu kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Sababi ular sonining qanchalik ko'p bo'lishi va raqobatbardosh bo'lishi aholining doimiy ish o'rinlari va daromadga ega bo'lishiga yordam beradi va eng asosiysi iqtisodiy farovonlikni kafolatlaydi.

Iqtisodiyot tarixidagi eng buyuk mutafakkirlardan biri A.Smit aytganidek, insonni harakatga keltiruvchi kuch bu egoizm, o'z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishdir. Ammo u buni normal holat sifatida qabul qiladi va -inson o'z manfaatlarini o'ylab harakat qilar ekan shuning barorbarida beihtiyor boshqalarga naf keltiradil deya ijobiy xulosaga keladi. Tadbirkorlik faoliyati aynan olim aytgan fikrlarga mos bo'lib, dastlab u o'z manfaatlari yo'lida harakatga keladi va boshqalarga ish berish orqali foyda keltiradi. Zamonamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoki mavjud faoliyat egasi bo'lganinsonlar uchun ular faoliyatini yangitdan boshlash yoki yanada kengaytirishda eng asosiy omillardan biri – bu infratuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi tashqi va ichki beqarorliklar sharoitida, infratuzilmani hududlarning ichki resurslariga asoslangan holda rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

-Infratuzilma tushunchasining lingvistik jihatdan tarixi 1875 yil Fransiyaga borib taqaladi va undan so'ng ingliz tilida ham 1887 yildan boshlab foydalanishga kirib kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarga esa, amerikalik iqtisodchi Rozenshteyn Rodan

tomonidan kiritiladi. Mazkur terminning lugʻaviy maʼnosi lotin tilida –infrall –quyil, –pastkill va fransuz tilida –structurell –tuzilmall degan maʼnolarni anglatadi. –Infrastrukturall tushunchasi turli soha uchun bir-biridan maʼlum bir jihatlariga koʻra turlichamaʼnolarni anglatadi. –Infrastrukturall atamasini iqtisodiyotda, yaʼni kichik biznes va tadbirkorlik sohasida oʻziga iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va ularni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi sohalar va sharoitlar jamlanmasi deyish mumkin [2]. Umuman olganda infrastruktura rivojlantirish masalalari yuzasidan asosan iqtisodchilar oʻtgan asrning 60 yillarida toʻxtala boshlagan (D.Rey, Sh.Shtoner, A.Marshall va D.Klark kabilar). Ularning aksariyati infrastrukturani aʼloqa, xom ashyo va texnik taʼminot, logistika tizimi va institutsional birliklar jamlanmasi deb bilishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Umumiy holatda infrastrukturani ikki guruhga ajratish mumkin: infrastruktura turlari ikkita asosiy guruhga ajratib koʻrsatrilgan. Ularning ishlab chiqarish hajmiga, samaradorligiga taʼsirham ikki xil [3]. Biri bevosita yana biri bilvosita taʼsirga ega. Misol uchun, energiya taʼminoti yaxshi boʻlsa, uzluksiz taʼminlab turilsa, ishlab chiqarishda toʻxtalishlar kam boʻladi va natijada ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilanadi. Ijtimoiy sohani oladigan boʻlsak, sifatli sogʻliqni saqlash tizimining mavjudligi ishchilarning kamroq kasallanishiga yoki tezroq sogʻayib ketishiga olib keladi va oqibatda ishchining ishlash vaqtidagi yoʻqotishlar kamroq boʻladi.

Iqtisodiy infrastruktura tarkibiga kiruvchi transport tizimi ham ishlab chiqarish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob beradigan, sifatli hamda salohiyatli transport tarmogʻi ishlab chiqaruvchilar uchun tovar va xizmatlarni isteʼmolchiga yetkazish vaqtini qisqartiradi. Kommunikatsiya tizimi esa ishlab chiqaruvchilarni bir-biri va isteʼmolchilar bilan bogʻlashda oʻrni beqiyosdir. Eng asosiy vazifasi esa maʼlumotlarni yigʻish, qayta ishlash va tarqatish hisoblanadi [4].

Ishlab chiqarish sohasi bilan bilvosita aʼloqa ega boʻlgan ijtimoiy soha infrastrukturasi bilan taʼlim tizimi ham juda muhim sanaladi. Sifatli taʼlim – sifatli kadr demakdir. Sifatli ishchi kuchining koʻpligi ishlabchiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida keltirilgan ayrim infrastruktura hususidagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mukimki, mazkur terminologiya uchun aniq bir qoida tariqasida keltirilgan taʼrif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infrastruktura uchun quyidagicha taʼrif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy- iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yigʻindisidir.

Tahlillar natijasi oʻlaroq quyidagilarni tavsiya sifatida keltirish lozim deb topdik:

- Davlat darajasida iqtisodiy hamda ijtimoiy soha infrastrukturasi

rivojlantirishni teng miqyosda olib borish;

- Mamlakatimizda hududlar infrastrukturasi rivojlantirishga ularning o'ziga xos jihatlari ko'ra yondashish;

Kelgusi tadqiqotlar uchun hududlarda infrastrukturani rivojlantirishda ichki resurslarga tayanishning ahamiyatini yoritish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimova, M.S., Shodibekova D. A., Yusupov M. A., & Samadov A.N.,(2005).Kichikbiznesiboshqarish"o'quvqo'llanma.T.:TDIU.
2. Mamatqulov, X.M., Abduxamidov, S.A., & Xamitov, M.X., (2020). Turizminfratuzilmasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
3. Hasanov, H., (2021). Tadbirkorlik infratuzilmasini raqamlashtirishning iqtisodiy samaralari. development issues of innovative economy in the agricultural sector, 257.
4. Xaitov, T., & Hasanov, H., (2021). Tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish barqaror rivojlanish asosi. development issues of innovative economy in the agricultural sector, partii, 524.
5. Kuvondikov, Sh., & Hasanov, H., (2017). Xizmat ko'rsatish va servis sohalari rivojlantirishda muhim yo'nalishlar. Ilmiy axborotnoma" ilmiy jurnal, Samarqand davlat universiteti, 4-son (104), 183.